

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 316.7:008:316.3

MILLIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH VA SAQLAB QOLISHNING IJTIMOY OMILLARI**СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ И СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ****DEVELOPMENT AND PRESERVATION OF NATIONAL CULTURE SOCIAL FACTORS****Raximova Guljahon Abduraxim qizi** 

Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, milliy madaniyat avvalo xalqning kimligini, uning o'ziga xosligini belgilaydi. Til, urf-odat, marosimlar, xalq og'zaki ijodi orqali millat o'zini boshqa millatlardan farqlaydi. Milliy madaniyatni rivojlantirish va uni asrab-avaylash jarayonida eng muhim omillardan biri bu identifikatsiya, ya'ni o'zlikni anglash hisoblanadi. Chunki madaniyat faqat moddiy va ma'naviy meros yig'indisi emas, balki insonlarning o'z millatiga, qadriyatlariga, tarixiy ildizlariga nisbatan bo'lgan ongii munosabatini ham ifodalaydi. Identifikatsiya shaxsning o'zini muayyan millat, jamiyat yoki madaniyat bilan bog'lash jarayonini bildiradi. Bu jarayon orqali inson o'z tarixiy ildizlari, an'analari, urf-odatlari, tili va dini bilan chambarchas bog'liqligi yoritilgan.

Аннотация

В этой статье национальная культура прежде всего определяет, кто такой народ, его уникальность. Через язык, обычаи, обряды, устное народное творчество нация отличает себя от других наций. Одним из важнейших факторов в процессе развития и сохранения национальной культуры является идентификация, то есть самосознание. Потому что культура - это не только совокупность материального и духовного наследия, но и выражает сознательное отношение людей к своей нации, ценностям и историческим корням. Идентификация означает процесс, посредством которого человек связывает себя с определенной нацией, обществом или культурой. Через этот процесс освещается тесная связь человека со своими историческими корнями, традициями, обычаями, языком и религией.

Abstract

In this article, national culture primarily defines the identity and uniqueness of a people. Through language, customs, rituals, and folklore, a nation distinguishes itself from other nations. One of the most important factors in the process of developing and preserving national culture is identification, that is, self-awareness. Because culture is not only a collection of material and spiritual heritage, but also expresses people's conscious attitude towards their nation, values, and historical roots. Identification refers to the process of connecting a person with a particular nation, society, or culture. Through this process, it is highlighted that a person is closely connected with their historical roots, traditions, customs, language, and religion.

Kalit sozlar: madaniyat, milliy madaniyat, tarixiy meros, san'at, axloq, qadriyat, jamiyat, millat, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik.

Ключевые слова: культура, национальная культура, историческое наследие, искусство, мораль, ценность, общество, нация, щедрость, вежливость, скромность, чистота, жизнерадостность, доброта, мужество, искренность, щедрость.

Key words: culture, national culture, historical heritage, art, morality, value, society, nation, generosity, politeness, modesty, cleanliness, cheerfulness, good nature, courage, sincerity, generosity.

KIRISH

Milliy madaniyat - bu xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini namoyon etuvchi, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni mujassamlashtirgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Uni rivojlantirish va saqlab qolish jarayoni jamiyatning barcha sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayniqsa ijtimoiy omillar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahonda, "millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlari, urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar qadriyatlar tizimiga kiradi. Xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalash jarayoni muhim"[1.93,94.] ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, "bugungi globalashuv sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolish" holatlari ham namoyon bo'lmoqda. "Zero, ertangi kuni uchun qayg'uradigan har bir

FALSAFA

mamlakat, har bir jamiyatda ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar yuksak qadrlangan"[2.235-238.]. Bunday sharoitda eng avvalo jamiyat axloqiy muhitini ana shu salbiy ta'irlardan asrab qolish ehtiyoji o'rni chandon ortadi"[3.515.]. Globallashuv natijasida dunyo o'zining barcha subyektlari bilan bog'lanib tobe bo'lib bormoqda[4.149,150.]. Kelajak avlod va millat uchun, yuksak madaniyatni rivojlantirish zamirida, ko'p millatli xalqni birlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolish, yoshlarda, do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, diyonatlilik, halollik, or-nomuslilik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi insoniy fazillatlarni shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Globalizatsiya sharoitida taraqqiyotga erishish bilan birga milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab qolish har bir jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Chunki global jarayonlar insoniyatning umumiy taraqqiyotini tezlashtirsa-da, milliy o'zlik, tarixiy meros va madaniy an'analarni so'ndirish xavfini ham yuzaga keltiradi. Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarnigina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulki, hazinasi ekanligini e'tirof etish mumkin.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Yoshlarning milliy madaniyatini yuksaltirishda, yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilish, yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish - (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish) da, muomala odobi kabi sifatlarlarni shakllantirishdan iborat. O'z navbatida jamiyat taraqqiyotida, milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirlarning oldini-olish, hamda mafkuraviy-siyosiy muammolarning yoritish muhim konseptual ahamiyat kasb etadi. Zero milliy madaniyat va qadriyatlar asosida, xalqning an'analarni, milliy madaniyati, ma'naviy merosini o'zida shakllantirish negizida yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori, "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2018 yildagi PQ-4038-son Qarori, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5465-son Farmoyishi, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi" 22-dekabr, 2023-yil"larida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz bo'ladi.

Yosh avlodni barkamol shahs sifatida tarbiyalashda Sharq mutafakkirlari ilmiy ijodida, madaniyat masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqa shahar turmush tarzini jamoaning etuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, "oliy darajadagi etuklikka erishish uchun intiladi", bunday etuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, "madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-xunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar". Alisher Navoiy etuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb insonparvarlik g'oyalari muvofiqlikni tushunadi.

XIX-asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan demokratik ma'rifatparvarlik harakatining namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar, Komil Xorazmiy va boshqa xalqni madaniyatli qilishning omili ilm ma'rifatni egallashda deb bildilar. Ular o'rta asr jaholatiga qarshi xalq o'rtasida ilimmaorif va madaniyatni zo'r ehtiros bilan targ'ib qildilar. Masalan, Furqat fikricha, ilm-fan bir mash'-al bo'lib, insoniyatning baxt-saodat yo'lini yoritib turishi kerak-deya e'tirof etadi. XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati

namoyandalari, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqa o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan madaniyat rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Ular turli gazeta va jurnallar chiqardilar, nashriyot va bosmaxonalar tashkil etdilar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochdilar, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni targ'ib qildilar, dunyoviy bilimlarni chuqur egallashga da'vat etdilar. Ma'rifatchilikning keng quloqchilik yoyishi samarasi o'laroq, xalqning umummadaniyati yuksalib bordi [5.459].

TAXLIL VA NATIJALAR

"Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, shubhasiz, madaniyat sohasidagi yangi yutuqlar, o'zgarishlarga va islohotlarning amalga oshishiga turtki bo'ldi. Madaniyat sohasida huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirish maqsadida "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi - madaniy faoliyat, shuningdek, madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat" [6.198,199].

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqei yanada mustahkamlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi yaratilgan bo'lib, madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy baza, institutsional tizim va madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish, madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish va boshqa shu kabi masalalar yo'lga qo'yildi. Madaniy sohada o'zaro samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratildi. Madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazorati yo'lga qo'yildi.

MUXOKAMA

Madaniyat - umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsada, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Masalan, san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va boshqa barchaga tegishlidir.

Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san'at asarlari, huquq, axloq normalari va hokazo)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko'nikmalari, ishlab chiqarish va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari)ni ham o'z ichiga oladi.

Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgari jamiyatning madaniy yutuklarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

Yangi O'zbekiston - demokratiya inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'sona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlat" [7.138,139.] ligini e'tirof etish mumkin.

FALSAFA

Yangi O'zbekistonda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishga o'tishi milliy madaniyatga sinfiy yondashishdan, uni sun'iy tarzda yagona umummadaniyatga aylanishdan saqlab qoldi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo'lgan so'nggi etmish yil davomida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G'arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o'tmishi bir yoqlama o'rganilib, uning ko'pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilgan keng islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilgan. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Milliy madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati shuki: Madaniyat insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy va asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarini qamrab oladi. "Madaniyat" atamasi lotincha "*cultura*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab "yer haydash", "parvarish qilish" ma'nolarini anglatgan. Keyinchalik esa u keng ma'noda inson faoliyati, yaratuvchanligi va ijodkorligi mahsulini ifodalovchi tushunchaga aylandi.

Milliy madaniyat avvalo xalqning kimligini, uning o'ziga xosligini belgilaydi. Til, urf-odat, marosimlar, xalq og'zaki ijodi orqali millat o'zini boshqa millatlardan farqlaydi. Milliy madaniyatni rivojlantirish va uni asrab-avaylash jarayonida eng muhim omillardan biri bu **identifikatsiya**, ya'ni **o'zlikni anglash** hisoblanadi. Chunki madaniyat faqat moddiy va ma'naviy meros yig'indisi emas, balki insonlarning o'z millatiga, qadriyatlariga, tarixiy ildizlariga nisbatan bo'lgan ongli munosabatini ham ifodalaydi. Identifikatsiya shaxsning o'zini muayyan millat, jamiyat yoki madaniyat bilan bog'lash jarayonini bildiradi. Bu jarayon orqali inson o'z tarixiy ildizlari, an'analari, urf-odatlarini, tili va dini bilan chambarchas aloqada bo'ladi. Milliy o'zlikni anglash - milliy madaniyatni asrab qolish va uni avlodlarga etkazishda asosiy psixologik va ijtimoiy mexanizmi hisoblanadi.

Milliy o'zlik shaxsning madaniy qadriyatlarga sodiqligi, ularni ongli ravishda qabul qilishi bilan namoyon bo'ladi. Madaniyat orqali inson o'zini nafaqat millat doirasida, balki umumbashariy maydonda ham anglaydi. Agar identifikatsiya kuchli bo'lsa, milliy qadriyatlar modernizatsiya jarayonida yo'qolib ketmaydi, balki yangilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy madaniyat jamiyatning ma'naviy asosini tashkil qiladi. Uni rivojlantirish va asrab qolish har qanday xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligini saqlash, umuminsoniy taraqqiyotda munosib o'rin egallashining kafolatidir.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayonni ta'minlaydigan asosiy omillar mavjud:

An'ana va qadriyatlarni davom ettirish omili;

Milliy urf-odatlar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi va san'ati madaniyatning asosi hisoblanadi. Ularni zamonaviy hayot sharoitida moslashtirish va rivojlantirish orqali yosh avlod ongiga singdirish lozim. An'analarni saqlash bilan birga, ularni ijodiy tarzda yangilash ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiya va ma'rifat omili;

Ta'lim tizimi milliy madaniyatni o'rgatish, tarixiy merosni targ'ib etish orqali yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonida milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashadi. Yoshlarni milliy qahramonlar, adabiyot, san'at va tarixiy shaxslar merosi asosida tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy birdamlik va milliy g'oya omili;

Jamiyatda umumiy milliy g'oya va maqsadlar mavjud bo'lsa, madaniyatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Milliy madaniyat xalqni birlashtiruvchi ruhiy kuch sifatida xizmat qiladi. Milliy birdamlik orqali tashqi madaniy bosimlarga qarshi turish imkoniyati kuchayadi.

Davlat siyosati milliy madaniyatni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi zarur. Madaniyat muassasalari, muzeylar, teatrlar, san'at maktablari orqali merosni asrab-avaylash. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari (NGOlar, madaniy markazlar) milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda faol bo'lishi kerakligi inobatga olinadi.

Globallashuv sharoitida madaniy immunitet omili;

Turli tashqi madaniy oqimlar ta'sirida milliy qadriyatlarni yo'qotmaslik uchun madaniy immunitet zarur. Bu jarayonda axborot vositalari, internet va ommaviy madaniyatning ijobiy va salbiy tomonlarini ajrata olish muhim. Milliy madaniyatni xalqaro maydonda targ'ib qilish- uning saqlanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijodkorlik va yangilanish omili:

Madaniyat faqat merosni saqlash emas, balki yangilik yaratish jarayonidir.

Zamonaviy san'at, adabiyot, musiqa va texnologiyalar orqali milliy madaniyatga yangi shakl berish mumkin. Innovaçion yondashuv milliy madaniyatni global maydonda tanitadi. Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy-falsafiy omillari - identifikasiya, an'ana va qadriyatlarni davom ettirish, ta'lim-tarbiya, milliy birdamlik, davlat va jamiyat qo'llab-quvvatlashi, globallashuv sharoitida madaniy immunitet hamda ijodkorlikdan iborat. Ushbu omillar uyg'unlashgan taqdirda milliy madaniyat nafaqat asrab qolinadi, balki yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tariladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, har bir millatning o'z madaniyati va san'ati uning xalq sifatidagi qadr-qimmatini belgilab beruvchi asosiy omillaridan biridir. Insoniyat vujudga kelibdiki, o'zining butun salohiyatini ishga solib, yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik, mushohadakorlik borasida tinimsiz izlanadi, bundan estetik zavq oladi va bu jarayonda ruhan yuksaladi. Har millat o'zining madaniyati va san'atining qudrati bois jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sabirova Karomat Sadullaevna. Shaxs axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni. /Scientific Journal Impact Factor. - Urganch; July 2021.
2. Xakimov Alisher Olimjonovich. Globallashuv sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrash muammosi. / Ta'lim va innovaçion tadqiqotlar (2024 yil № 6).
3. X.P.To'xtayev. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi. / International Scientific Conference. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-512-517. April, 2022.
4. Abduraxmonova Sevinch, Charos Fayziy. Globallashuv va milliy madaniyatning jamiyatga ta'siri. Journal of Analytical Synergy andScientificHorizon ISSN: 3060-5261 Impact faktor: 9.9Volume 1, Issue 3, Series A 2025.
5. O'zME. Birinchi jild. -Toshkent., 2000-yil.
6. A.T.Ergashev. Milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch. / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Research BIB / Index Copernicus. (E)ISSN: 2181-1784 5(3), March, 2025.
7. Ziyodaxon Dilshodjon qizi To'g'onboyeva Xolmo'minov Zokir o'g'li Mo'minmirzo. Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan chora-tadbirlar. / "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022.